



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

---

2023 yil 25 iyul

№ 1809

### **O‘zbekiston Respublikasi ayrim sudlariga sudyalarni qayta tayinlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 69-72-moddalari va “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq:

**Abdullayev Xayrullo Gaybulloyevich** – sudyalik vakolati muddati davriga Buxoro viloyat sudining iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Buxoro viloyati Romitan tumanlararo iqtisodiy sudining raisi lavozimidan ozod qilinsin;

**Zoirov Nurmurod Tuymurodovich** – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Buxoro viloyati Romitan tumanlararo iqtisodiy sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Buxoro viloyati Qorako‘l tumanlararo iqtisodiy sudining raisi lavozimidan ozod qilinsin;

**Inamov Avazbek Anvarovich** – sudyalik vakolati muddati davriga Namangan viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Namangan viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Chust tuman sudining raisi lavozimidan ozod qilinsin;

**Yakubxo‘jayev Jaxongir Umarxo‘jayevich** – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Namangan viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Chust tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Andijon viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Izboskan tuman sudining raisi lavozimidan ozod qilinsin;

**Nazirbekov Axmadjon Salimjonovich** – sudyalik vakolati muddati davriga Andijon viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Izboskan tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Andijon viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Xo‘jaobod tuman sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

**Turdibekov Azizbek Turdibekovich** – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Ohangaron tumanlararo sudi raisining o‘rinbosari lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha O‘rtachirchiq tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

**Mirzayev Umidjon Saydaxmadovich** – sudyalik vakolati muddati davriga Farg‘ona viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Rishton tumanlararo sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Ohangaron tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

**Toshpulotov Mansur Akramovich** – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent viloyat ma'muriy sudining sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Toshkent viloyati Nurafshon tumanlararo ma'muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

**Akramova Djamilya Sayfiyevna** – sudyalik vakolati muddati davriga Farg'ona viloyat sudining iqtisodiy ishlar bo'yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Farg'ona viloyati Farg'ona tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

**Mirmaksudov Mirkomil Sadikovich** – sudyalik vakolati muddati davriga Farg'ona viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha Farg'ona tumanlararo sudining sudyasi lavozimiga tayinlansin;

**Davlatov Baxodir Xudayberganovich** – sudyalik vakolati muddati davriga Xorazm viloyat sudining iqtisodiy ishlar bo'yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Xorazm viloyati Bog'ot tumanlararo iqtisodiy sudining raisi lavozimidan ozod qilinsin;

**Sharipov Dilshod Saburovich** – sudyalik vakolati muddati davriga Xorazm viloyati Bog'ot tumanlararo iqtisodiy sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Xorazm viloyati Bog'ot tumanlararo iqtisodiy sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

**Arziyev Akmal Turopovich** – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Qashqadaryo viloyati G'uzor tumanlararo iqtisodiy sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin, shu munosabat bilan Qashqadaryo viloyat sudining iqtisodiy ishlar bo'yicha sudyasi lavozimidan ozod qilinsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**X.Yodgorov**

HR18088167